



JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH ASOSLARI

Shokirov Boburjon Tohirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

Shokirov1603@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12606770>

ARTICLE INFO

Received: 27th June 2024

Accepted: 28th June 2024

Published: 01st July 2024

KEYWORDS

Konstitutsiya, inson huquqlari, erkinliklar, qonun, normativ-huquqiy hujjat, islohot, jamiyat.

ABSTRACT

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi joriy qonunchilik hujjatliga ko'ra mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash, mustahkamlash va kafolatlash tushunchalari, hamda 2023 – yil 1 – may kuni qabul qilingan Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida jamoat xavfsizligiga berilgan e'tiborni ko'rishingiz mumkin.

KIRISH

Yurtimizda amalga oshirilayotgan bir qancha islohotlar natijasida fuqarolarning tinch va osoyishta hayotini ta'minlash va mamlakatimizda qonunlarga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga hamda huquqiy ongini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, xalqaro maydonda kuchayib borayotgan turli xildagi xavf-xatar va ziddiyatlar, tinchlik va osoyishtalikka tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat muassasa va tashkilotlariga o'z faoliyatini «Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish va mustahkamlash vazifasini yuklamoqda. Qolaversa, jahonda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan mustaqil mamlakat timsolida davlat suverenitetini saqlash va uning milliy xavfsizligini kompleks ta'minlash bilan birga, aholining tinch va osoyishta hayot kechirishi uchun tegishli sohalarda tizimli choralar ko'rish masalalari muhimligicha qolmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini tartibga soluvchi, normativ-huquqiy hujjatlarning pog'onali mutanosibligiga muvofiq qonunchilik tizimida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning bosh qomusi, asosiy huquq manbasi sifatida milliy qonunchilik, hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatidagi qonunchilikning rivojlanishi, takomillashtirilishi uchun zarur huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asosiy qonunimizning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim ahamiyati to'g'risida so'z borganda, uning 3, 26, 65 va 152-moddalarida har bir shaxsning daxlsizligi, mamlakatimiz chegara va hududlarining daxlsizligi, konstitutsiyaviy tuzumning himoya qilinishi hamda Qurolli Kuchlarning aholining tinch hayoti va xavfsizligi hamda mudofaa salohiyatiga ko'maklashish bilan bog'liq normalar belgilab qo'yilganini ta'kidlash joiz. Konstitutsiyadagi real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat va epidemiyalar bilan bog'liq

favqulodda vaziyat yuzaga kelganda, davlat rahbarining qarori bilan mamlakatning butun hududi yoki ayrim joylarida favqulodda holat joriy etilishi konstitutsiyada mustahkamlangan.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash va kafolatlash faoliyatini huquqiy ta'minlashni o'zida namoyon etgan qonunchilik hujjatlari qatorida konstitutsiyaviy normalar o'ziga yarasha muhim o'rin va ahamiyat kasb etib, ularni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin bo'ladi: Birinchidan, Konstitutsiyaning Asosiy qonun sifatida normativ-huquqiy hujjatlar tizimidagi ustuvor o'rin egallashi, avvalambor, Konstitutsiyamizning o'zida, xususan, uning 15-moddasidagi O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishi hamda 16-moddasi ikkinchi qismidagi birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emasligi to'g'risidagi norma mazmunidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, barcha qonun hujjatlari, shu jumladan harbiy qonun hujjatlari qabul qilinishida ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, tizimlashtirish, shu jumladan, kodifikatsiyalash natijasida yangi qonun hujjati shakllantirish ko'zda tutiladigan bo'lsa, u konstitutsiyaviy talablarni kafolatlashga qaratilgan normalarni o'zida mujassam etishi kerak bo'ladi. Ya'ni, "huquq ijodkorligi" faoliyati Konstitutsiyani joriy etishning huquqiy vositasi hisoblanadi.

To'rtinchidan, mamlakatimiz rivojlanib borar ekan, turli xildagi yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishi bilan birga qonunlar ham, shu bilan birga, Konstitutsiya ham takomillashib boradi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat tamoyillaridan kelib chiqib isloh qilinmoqda. Ushbu islohotlar zamirida, Bosh qomusimizga xalqimiz tashabbusi va takliflari inobatga olinib, ular asosida juda katta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Yana bir jihat borki, jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari mustahkamlangan 109 - moddasining 19 - bandida aks etgan bo'lib, unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etishi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritishi mumkin. Vaholanki, ushbu norma jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan taqdirda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, huquq va erkinliklarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiya doirasida o'z vakolatlarini amalga oshirishiga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi asosiy, maxsus qoidalari ham belgilab qo'yilgan. Xususan, 3, 38, 40, 48, 54, 64, 78, 85, 152 va 153 - moddalari mazmunida mustahkamlangan. Masalan, davlat chegarasi va hududining daxlsizligi (3-modda), fuqarolarning miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazish bilan bog'liq siyosiy huquqlarini ta'minlash (38-modda), har bir shaxsning vakolatli davlat organiga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilishi hamda ularning murojaatlari qonunda belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi (40-modda), davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi (54-modda), konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish (64-modda), Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etilishi (85-modda) kabilar shular jumlasidandir.

Konstitutsiyamizning 152 - moddasi ikkinchi qismiga asosan "Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi". Ya'ni davlatning eng muhim faoliyatiga kiruvchi harbiy qurilish sohasi qonun bilan tartibga solinishi tufayli mudofaani tashkil etish hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining boshqaruvi jamoatchilik nazoratida bo'lishi ta'minlanadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqaro huquqning

umume'tirof etilgan normalarini o'zida mujassam etgan, demokratik Konstitutsiya ekanligini yana bir bor ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi harbiy huquqning eng muhim manbasi hisoblanadi.

XULOSA

Fikrimizcha, konstitutsiyaviy normalarining qisqacha tahlili Konstitutsiyada jamoat xavfsizligini ta'minlashda inson, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda yanada aniqlashtirish hamda qonunni qo'llash madaniyatining barqaror rivojlanishiga imkon beradi, deb hisoblaymiz. Shuningdek, Respublikamizda ishlab chiqilayotgan qonun va normativ-huquqiy hujjatlar asosidagi islohotlar aniq va to'g'ri, aynan ushbu hujjatlarda yoki nizomda ko'rsatilgan bandlari bo'yicha bosqichma-bosqich faoliyat olib borilsa mamlakatimizda jamoat xavfsizligi yanada mustahkamlanishiga ishonamiz. Aytilayotgan islohotlar va qonunchilik hujjatlari amalda ham keng tatbiq etilsa mamlakatimizda xavfsizlik tizimi albatta kuchliroq ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mudofaa va xavfsizlikning konstitutsiyaviy asoslari. Yo'ldoshev A., Ahmedov J. 2023
2. <https://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
4. <https://uza.uz/oz/> - O'zbekiston milliy axborot agentligi.

INNOVATIVE
ACADEMY